



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY  
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION  
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ  
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ  
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF  
ABU RAYHAN BERUNI  
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,  
AND ECONOMY IN THE FIELD OF  
CONSTRUCTION AND  
ARCHITECTURE”  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
1-TO'PLAMI



## **TASHKILIY QO‘MITASI:**

### **RAIS:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,  
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

### **HAMRAISLAR:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik  
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti  
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi  
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch  
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

### **ILMIY KOTIB:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”  
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

## **TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari  
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod  
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”  
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”  
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

### **ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:**

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

2. Михайлов Александр Юрьевич **Научные основы проектирования улично-дорожных сетей 18.00.04** – Градостроительство, планировка сельских населенных пунктов Автореферат диссертация на соискание ученой степени доктора технических наук Москва 2004.
3. «Вопросы обустройства и содержания улично-дорожной сети, конструкции транспортных средств, а также экологической безопасности». Третий Международный конгресс «Безопасность на дорогах ради безопасности жизни», круглый стол № 3 Рекомендации. 29 октября 2010 г.

**SHAHARLARNI REJALASHTIRISHDA TABIIY-IQLIMIY  
HUDUDLARNI TA'SIRINI O'RGANISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA).**

Axmedjanov Sirojiddin Shokir o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib ajratilgan qurilish-iqlimiy mintaqalariga asosan shaharlarni yillik ob-havosini soatlar kesimida ajratish orqali kichik tumanlarda yangidan quriladigan ko'p kvartirali uy-joylar atrofini ko'kalamzorlashtirishda talab qilinadigan minimal ko'kalamzorlashtirish o'lchamlari keltirilgan.

**Аннотация**

В этой статье перечислены минимальные размеры озеленения, необходимые для озеленения территорий вокруг вновь строящихся многоквартирных домов в небольших районах путем разделения годовой погоды в городах на часовые пояса в зависимости от климатических зон застройки, разделенных в зависимости от природных условий района.

**Annotation**

This article presents the minimum greening dimensions required in greening the surroundings of apartment buildings, which are built anew in small districts, mainly by ageing cities with annual weather in hours ' cross section, to the

construction-climatic regions allocated based on the natural conditions of the territory.

### **Tayanch soʻzlar**

Shaharlarni koʻkalamzorlashtirish, koʻp kvartirali uy-joylar, qavatlilik, tabiiy-iqlim, qurilish-iqlimiy mintaqalari, daraxt, ekspluatatsiya, vertikal, landshaft.

### **Ключевые слова**

Озеленение городов, многоквартирные дома, этажность, природно-климатический, строительно-климатические регионы, дерево, эксплуатация, вертикальный, пейзаж.

### **Keywords**

Urban greening, multi-apartment housing, floor, natural-climate, construction-climatic regions, tree, exploitation, vertical, landscape.

### **Kirish**

Shaharlarni koʻkalamzorlashtirish tizimini ishlab chiqishda va yaratishda tabiiy-iqlim, sanitariya-gigiyena, landshaft-ekologik va boshqa omillarga katta ahamiyat qaratiladi.

Shahardagi binolarni loyihalashda ularni qanday iqlimiy hududda qurilishi hamda ekspluatatsiya qilinishi shaharsozlikda eʼtiborga olinishi lozim boʻlgan asosiy talablardan hisoblanadi, sababi koʻp kvartirali xonadonlarni joylashgan iqlimiy mintaqasiga qarab loyiha, qurilish montaj jarayonlari va ekspluatatsiya qilish talablari oʻzgaradi yoki qoʻshimcha talablar paydo boʻladi: uni oʻrab turadigan iqlimiy sharoiti, hududning vertikal holati, tuproqning geologik holati, yerosti suvlarining gidrogeologik vaziyati hamda boshqa tabiiy-iqlimiy koʻrsatgichlarni barchasi loyihalash jarayonida asosiy oʻringa chiqadi. Bunda respublikamiz hududida qurilish ishlarini loyihalash jarayonida amaldagi xalqaro hamda milliy shaharsozlik norma va qoidalari talablaridan foydalanish vazifasi yuklatiladi.

### **Asosiy qism**

Shaharlarni koʻkalamzorlashtirish tizimini ishlab chiqishda qurilish-iqlimiy mintaqalari respublikamiz hududidagi amaldagi shaharsozlik norma va qoidalari talablariga asoslaniladi [1].


Bunda respublikamiz hududi quyidagi qurilish-iqlimiy mintaqalarga bo‘linadi: I, II hamda III mintaqaga; mos ravishda I mintaqaning o‘zi ham Ia, Ib, Iv, Ig ostmintaqalarga bo‘linadi.

**I-mintaqaviy hudud:** Sahro iqlimi ta’sirida bo‘lgan va ob-havo sharoitlari tez-tez o‘zgaradigan murakkab iqlimli zonalar qishi sovuq, yozi quruq issiq bo‘lishi bilan ajralib turadi, bunga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlarining shimoliy qismlari kiradi.

**Ia va Ib** ostmintaqalar yuqori jazirama davrli; **Ia, Ib** va **Iv** ostmintaqalar havosi yuqori darajada changli; **Ig** ostmintaqa sovuq qishi bilan ajralib turadi.

**II-mintaqaviy hudud:** Tog‘oldi vohalar, tabiiy-iqlimiy va landshaft sharoitlari nisbatan yaxshi bo‘lgan vodiylar va yassitog‘li mintaqalar. Qishi yumshoqroq va issiq yozi bilan ajralib turadi, bu hududlarga Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlari kiradi.

**III-mintaqaviy hudud:** yozi juda issiq, qishi qisqa va nisbatan yumshoqroq iqlimli viloyatlar kiradi, bu yerda tez-tez janubiy issiq shamol esib turadi. Bu hududlarda issiq kunlar ko‘p bo‘lganligi sababli bino inshootlarni loyihalashda uy-joylarni issiqdan saqlash choralari ko‘rgan holda loyiha ishlarini bajarish lozim (1-rasm).



### **1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi qurilish-iqlimiy zonalarining sxematik xaritasi**

Ushbu mintaqalarda joylashgan hududlarni tabiiy sharoiti hamda ob-havosini alohida o‘rganish talab etiladi, sababi hududlarni ko‘kalamzorlashtirish hamda obodonlashtirish loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ularga asoslaniladi.

#### **Adabiyotlar tahlili**


Xorazm viloyati respublikamiz qurilish-iqlimiy mintaqalarining Iv-ostmintaqasi ya’ni yuqori darajada changli hududda joylashganligini ko‘rishimiz mumkin, sababi viloyat hududining bir qismi Qoraqum qumligi bilan tutashganligi natijasida yoz kunlari harorat  $+43^{\circ}$  dan  $+45^{\circ}\text{C}$  darajagacha ko‘tarilishi, qish oylarida hududda eng past harorat  $-30^{\circ}$  dan  $-33^{\circ}\text{C}$  sovuqgacha tushishi mumkin, buning natijasida maksimal va minimal haroratlarning orasidagi farq (amplituda)  $78^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi.

Ushbu [1] ShNQ ga asoslanadigan bo‘lsak bir yildagi chang-to‘zonli kunlar soni 20 kundan ko‘p, jazirama issiq davrning davom etishi yil davomida 40-60 kun (jazirama issiq davrga havoning eng yuqori harorati  $34^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo‘lgan kunlar ham qo‘shilgan). Qish kunlari mavsumning 50 % dan kamroq qismida qor qoplamasi uzoq vaqt erimay yotadi.

Inson organizmi uchun eng qulay (comfortable  $18^{\circ}\text{C}$  dan  $24^{\circ}\text{C}$  gacha) bo‘lgan harorat Xorazm viloyatida ob-havoni o‘zgarishini ko‘p yillik kuzatishlar natijasida to‘plangan ma’lumotlarga asosan aynan may hamda sentyabr oylarida kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shaharsozlikda ko‘p kvartirali uylarning ekspluatatsiya muddatini loyihadagi muddatgacha davom etishi yoki undan oldin tugashiga olib keluvchi ta’sirlar mavjud ular ichida iqlim ta’sirlarini alohida ta’kidlash kerak [6], shuning uchun Urganch shahri hududda ob-havoning yil davomida soatlik o‘zgarishi hamda  $^{\circ}\text{C}$  larga bo‘linishini 2-rasmda ko‘rishimiz mumkin, unga asosan shaharda Iyun, Iyul hamda Avgust oylarida  $35^{\circ}\text{C}$  dan yuqori harorat bo‘lishi kuzatiladi [3].

## Urganch



**2-rasm. Urganch shahrida ob-havoning yil davomida soatlik o'zgarishi sxemasi**

Shaharsozlikda hudud iqlimini yaxshi xolatda saqlash maqsadida yangidan quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va umumiy maydoni 500 m<sup>2</sup> dan ortiq bo'lgan bino va inshootlarni loyihalashtirishda ularga tutash hududlarning ko'kalamzorlashtirish maydonlari loyiha uchun ajratiladigan yer uchastkalari umumiy maydonining 30 % dan kam bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi (ekspluatatsiya muddati o'tab bo'lgan va ma'nan eskirgan bino va inshootlarni renovatsiya qilish bundan mustasno) [2]. Kichik tumandagi yashil maydonlar ostidagi hududlar kattaligi binolarning qavatlilik soniga qarab belgilanadi [5]: 2-3 qavatli 19-15 m<sup>2</sup>/kishi; 4-5 qavatli 14-11 m<sup>2</sup>/kishi; 6-8 qavatli 10,5-9 m<sup>2</sup>/kishi; 9-12 qavatli 8,5-8 m<sup>2</sup>/kishi; 13-16 qavatli 7 m<sup>2</sup>/kishi. Qavatlar sonidan qat'iy nazar jismoniy tarbiya va sport maydonchalari uchun har bir aholi uchun 1,2 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan yashil maydon ajratiladi.

### **Xulosa**

Shaharsozlikda yangidan qurilayotgan hamda ekspluatatsiya qilinayotgan ko'p xonadonli uy-joy egalarining umumiy mulki sanalgan hududlarning ko'kalamzorlashtirish darajasi kelgusida bino va unga yondosh hududni ekspluatatsiya davri davomida iqlimi hamda mikroiklimini yaxshi holda saqlash uchun asos bo'ladi, buning uchun hududning tabiiy iqlim sharoiti va ob havosi haqida to'planadigan ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratish hamda qayta tahlil qilish orqali hududlarni ko'kalamzorlashtirish rejalarini ishlab chiqish va optimalini tanlash talab qilinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. ShNQ 2.01.01-22 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma'lumotlar" shaharsozlik normalari va qoidalari.
2. QR 01.01-23 "Hududlarni obodonlashtirish ishlari" qurilish reglamenti.
3. "O'zbekistonda integratsiyalashgan barqaror harakatchanlikni tadqiq qilish RISMUZ" 2025 yil 24-28 fevral kunlari Urganch shahrida tashkillashtirilgan xalqaro ilmiy amaliy seminar ma'lumoti.
4. ShNQ 2.07.01-23 "Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish" shaharsozlik norma va qoidasi.
5. Adilov Z.H. O'zbekiston shaharlari landshaft muhiti dizaynini kompleks tashkil etish. Monografiya-Toshkent; "UMID DESIGN" nashriyoti, 2022,-172 bet.
6. Axmedjanov S. Sh. Ekspluatatsiyadagi ko'p kvartirali uylarning konstruksiyalarini jismoniy yemrilish darajasini aniqlashda nazariy usullardan foydalanish tamoyillari.

### **SPECIFIC FEATURES OF URBAN AREA IMPROVEMENT SHAHAR HUDUDLARNI OBODONLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Achildiyev Rasul Makhmadaliyevich,**